

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 13 754 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 13 394,5 mlrd. so‘mni (102,6 %), o‘rmon xo‘jaligi – 312,2 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi - 47,3 mlrd. so‘mni (113,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.



13 754,0

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



13 394,5

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



312,2

O‘rmon xo‘jaligi


03




47,3

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, %



2022- yilning yanvar-iyun yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,4 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarga, 2,3 foizi - o'rmon xo'jaligiga, 0,3 foizi - baliqchilik xo'jaligiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2022- yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka 1 578,3 (103,4 mlrd. so'm) va Jalaquduq (1 333,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Andijon (380,2 mlrd. so'm) Xonobod shahar (66,4 mlrd. so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (102,7 %) yuqori o'sish sur'atlari Paxtaobod (105,1 %) va Xo'jaobod (105,6 %) tumanlarida kuzatildi. Shahrixon (99,4 %), Andijon (101,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 13 312 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 8 239,6 mlrd. so'mni (102,1 %), chorvachilik mahsulotlari – 5 072,3 mlrd. so'mni (103,6 %) tashkil qildi.


**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining
ulushi, % da**



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,1 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 31,0 foizi - ferma xo‘jaliklariga, 2,9 foizi - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha
xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



■ Ferma xo'jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi ferma xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida (45,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shaharda (99,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xo'jaobod tumanida (8,1 %) qayd etildi.


Ferma xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Buloqboshi tumanida (20,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Xo'jaobod tumanida (52,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xonobod shahrida (0,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8 239,6 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 61,9 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xoʻjaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari

● Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Hududlar boʻyicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming t.




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 578,3 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 77,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.



Kartoshka




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 186,9 ming tonna kartoshka (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 10,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 70,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t.




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 22,4 ming tonna poliz (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 16,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 77,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t.



Meva va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 244,6 ming tonna meva va rezavorlar (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 57,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha mevalar va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t.



Uzum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1,5 ming tonna uzum (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 10,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2022- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5 072,3 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,1 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.





2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 78,7 ming tonna go'sht (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 104,8 % ga ko'p), 348,9 ming tonna sut (102,2 % ga ko'p), 300,0 mln. dona tuxum (106,8 % ga ko'p) yetishtirildi va 4062,1 tonna baliqchilik (114,6 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)

Hajmi, ming t.

O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da

● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 78,7 ming tonna go'sht (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 4,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna



Sut



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 348,9 ming tonna sut (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 2,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna



Tuxum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 300,0 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 6,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 72,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar bo'yicha olingan tuxum hajmi, mln. dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 062,1 tonna (2021- yilning yanvar-iyunga nisbatan 14,6 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 51,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022- yining 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 22,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 76,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 17,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 63,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 19,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 091 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 24,4 ming taga (2,3 %) ko'paydi.


Yirik shoxli qoramollar



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 376,2 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 10,2 ming taga (2,8 %) ko'paydi.


Sigirlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 510,9 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 33,7 ming taga (2,3 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarining 93,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarining umumiy bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 104 taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 262 taga (3,8 %) ko'paydi.



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 76,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 9 108,3 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 903,8 ming taga (11,0 %) ko'paydi.

Parrandalar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 63,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh

